

TA'LIM XIZMATLARI SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI RIVOJLANISHINING XORIJ TAJRIBASI

Imomov Xolmurod Norqulovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi

e-mail: 00_bek94@mail.ru

tel.: +998 99 338 36 53

Annotatsiya. Ushbu maqolada ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tamoyillarining rivojlanishi bo'yicha xorijiy tajriba o'rganiladi. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSh mexanizmlarining qo'llanilishiga oid misollar tahlil qilinib, ularning samaradorligi baholanadi. Xususiy sektorning ta'lim sohasiga jalb qilinishi, investitsiyalar oqimini oshirish, ta'lim sifatini yaxshilash va innovatsiyalarni joriy etishdagi roli yoritiladi. Xorijiy tajriba asosida O'zbekistonda DXSh rivojlanishining istiqbollari bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: davlat-xususiy sheriklik, ta'lim xizmatlari, xorijiy tajriba, innovatsiya, ta'lim sifati, strategik hamkorlik.

Kirish. Milliy iqtisodiyotning samaradorligiga ko'plab omillar ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa, uning darajasi ko'p jihatdan iqtisodiyotdagi davlatning tutgan rolga bog'liq. Bozor iqtisodiyotidagi kamchiliklar va daromadlar tengsizligining mavjud bo'lish riski ijtimoiy hayotning ko'plab sohalarida davlat rolini ahamiyatli qilib qo'yadi. Biroq innovatsion iqtisodiyot sharoitida sifatli ta'lim xizmatlarini taqdim etishning zarurati bu borada davlat boshqaruvining maqsadli dasturlarini amalga oshirish va bir qator vazifalarni bajarishni talab qiladi. Bunda davlat va xususiy sektor manfaatlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash va ularning imkoniyatlaridan samarali foydalanish ta'lim samaradorligiga erishish va yuqori darajada ta'lim xizmatlarini ko'rsatishda muhim ahamiyatga ega.

Adabiyotlar sharhi. V.P.Cherdantseva, A.P.Andrunika, S.A.Kotovalar DXShni sifatli ta'lim xizmatlarini ko'rsatishni ta'minlaydigan ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni realizatsiya qilish uchun zarurligini ta'kidlaydilar [1]. Xuddi shu natijani A.D.Baksheev, DXShdan foydalanishni o'quv jarayonini mazmunli yangilash bilan bog'laydi [2].

Ushbu nuqtai nazarni A.L.Kekkonen va S.V.Sigova oliy ta'lim va biznes o'rtasidagi hamkorlikni iqtisodiyotning kadrlar salohiyatini rivojlantirishning asosiy omili sifatida belgilab berdi [3].

S.Yu.Frolovning fikricha, qo'shimcha byudjetdan tashqari mablag'larni jalb qilish orqali ularning raqobatbardoshligiga erishish uchun OTMlari va biznes o'rtasidagi o'zaro hamkorlik zarur [4].

O.P.Molchanova qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilish, moslashuvchanlik va boshqaruv samaradorligini oshirish hamda OTMlarining umumiy risklarini kamaytirishga e'tibor qaratib, DXSh loyihalarida oliy ta'lim ehtiyojlari doirasini kengaytiradi [5].

Olimlarning izlanishlarni davomi sifatida S.N.Xashimova va A.A.Abdikarimovalar tomonidan davlat-xususiy sheriklik mohiyati, ahamiyati va afzalliklari bo'yicha izlanishlar olib borilganligi ham tadqiqotimizning dolzarbligini

oshiradi [6]. Tadqiqotchilarning fikricha, Bozor mexanizmlarining rivojlanib borishi natijasida davlat va xo‘jalik yurituvchi subyektlar o‘rtasida yangi iqtisodiy munosabatlar shakllanib boradi. Bunday iqtisodiy munosabatlarning rivojlangan mamlakatlar amaliyotidagi bir ko‘rinishi, bu davlat va xususiy tarmoqlar sheriklik munosabatlaridir. Davlat xususiy sheriklikning asosiy vazifasi O‘zbekistonning barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi uchun davlat va xususiy sheriklikning samarali o‘zaro harakatlanishi uchun sharoit yaratishi hamda xususiy sektor resurslaridan umumjamiyat ehtiyojlarini qondirishda foydalanish tushuniladi.

Davlat-xususiy sheriklik tizimi (DXSH) - biror mamlakatga yoki ushbu mamlakat tomonidan berilgan ko‘rsatmalar asosida xizmat ko‘rsatuvchi xususiy sektor uchun uzoq muddatli shartnoma bo‘lib, xususiy sektor o‘zining moliyaviy, texnik va boshqaruv resurslaridan foydalanish orqali loyihani ilgari suruvchi kuch hisoblanadi. Davlat sektori esa asosiy loyiha aktivlari (misol uchun, yer uchastkalari)ni taqdim etadi va yuridik hamda shartnoma asosida uzoq muddatli o‘zaro munosabatlarni o‘rnatadi, loyihaga tayyorgarlikni moliyalashtiradi.

Demak, davlat, xususiy sherikligining bir qator afzalliklari quyidagilarda namoyon bo‘ladi: strategik ahamiyatga ega bo‘lgan loyihalar amalga oshiriladi; davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi resurslar birlashib, mulkdan foydalanish samaradorligi oshadi; qo‘shimcha manbalar jalb etilishi natijasida davlat bilan xo‘jalik munosabatlari shakllanadi; davlat ortiqcha xarajatlarsiz biron-bir faoliyat va xizmatni yo‘lga qo‘yadi.

Davlat-xususiy sheriklik, asosan, ijtimoiy, ya‘ni maktabgacha ta‘lim, umumiy va oliy ta‘lim hamda sog‘liqni saqlash sohalari, uy-joy kommunal xo‘jaligi, avtomobil yo‘llari qurilishi va elektr ta‘minoti tarmoqlaridagi infratuzilma loyihalarini ro‘yobga chiqarishda keng qo‘llaniladi.

Bu borada iqtisodchi olim G.Utemuratovning fikricha hozirgi vaqtda jahonning bozor iqtisodiyotiga ega ko‘plab mamlakatlarda davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi iqtisodiy munosabatlar tizimida sezilarli o‘zgarishlar sodir bo‘lmoqdaki, bu o‘zgarishlar iqtisodiyotning yangi institutsional tuzilmasini shakllantirmoqda. Bu esa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos shakli vujudga kelayotganligining ifodasi hisoblanadi. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos shakli sifatida DXSHning turli xil shakllarini jadal rivojlanishi, ularning iqtisodiyot soha va tarmoqlarida keng ko‘lamda qo‘llanilishi o‘zaro hamkorlikning ushbu shaklini bozor iqtisodiyotining muhim xususiyati sifatida tan olish imkonini beradi.

Ta‘lim tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish har bir davlatning iqtisodiy hayotida va ta‘lim xizmatlarini yetkazib berishda muhim rol o‘ynaydi. Davlat byudjetining cheklanganlik sharoitida hamda aholining ta‘lim sifati va normal hayot kechirishga bo‘lgan talabining cheksizlik holatida ushbu munosabatlarni rivojlantirish mamlakat ta‘lim tizimi uchun asosiy vazifa bo‘lib qoladi.

Sherikchilik munosabatlarining hamohangligini ta‘minlash mamlakat ta‘lim tizimidagi muhim ijtimoiy-iqtisodiy o‘zgarishlarga sabab bo‘lishi mumkin. Davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarida davlat va biznes keng ko‘lamli masalalar, jumladan, bugungi kun tartibidagi va hozirgi ijtimoiy muammolarni hal qilishga qaratilgan vazifalar, shu bilan birgalikda, iqtisodiy muammolarni bartaraf etishda

ikkala tomon ham hamkorlik qilishdan manfaatdordir va bu, o‘z navbatida, jamiyat rivojida o‘ziga xos ustuvorliklar kasb etadi.

Tahlil va natijalar. Jahonning rivojlangan mamlakatlarida davlat-xususiy sherikligini amalga oshirish uchun turli xil yondashuvlar, modellar, shakllar qo‘llaniladi. Bu borada asosan e‘tibor biznes faoliyatiga yo‘naltiriladi, masalan, BRIKSda bu amaliyot ko‘proq kichik va o‘rta biznes rivojlanishini qo‘llab-quvvatlaydi. BRIKS mamlakatlari kichik va o‘rta biznesning iqtisodiy o‘sish omili sifatidagi ahamiyatli deb hisoblashadi. Kichik va o‘rta korxonalar duch keladigan muammolarni hal qilish va ularning rivojlanishini rag‘batlantirish uchun turli DXSH tashabbuslarini amalga oshirdilar. Ular asosan, biznes faoliyatiga yo‘naltirilgan tashabbuslarini amalga oshirishda mikro va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash xizmati bilan xususiy sektor sub’yektlari bilan o‘qitish, konsalting, bozorlarni egallash, kichik va o‘rta biznesni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun hamkorlik qiladi va bu munosabatlar biznes korxonalarining raqobatbardoshli, barqarorligini saqlashga qaratiladi.

Jahon tajribasidan ma‘lumki, DXShning samarali va ijobiy natija berishi bevosita quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

1. Iqtisodiy tenglik va mas‘uliyat. Uning mohiyati shundan iboratki, DXShning barcha ishtirokchilari masalalarni hal qilish va maqsadlarga erishishning optimal variantlarini aniqlashda teng huquqqa ega bo‘ladi. Har bir ishtirokchi o‘z majburiyatlari bo‘yicha jamiyat oldida to‘liq mas‘ul bo‘lishi kerak.

2. Loyihaning barcha ishtirokchilari manfaatlarini har tomonlama hisobga olish.

3. Selektivlik. Barcha resurslar va ularning manbalari davlat va xususiy tadbirkorlik o‘rtasidagi sheriklik asosida mamlakat iqtisodiy rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlarida jamlanishi lozim. Resurslardan foydalanish samaradorligini oshirishning eng muhim mezonini sinergik samaraga erishish hisoblanadi.

4. Strategik maqsadni aniqlash iqtisodiyot tarmoqlarini bosqichma-bosqich hamda izchillik bilan rivojlantirishga yo‘naltirilish zarur.

Ma‘lumki, rivojlangan mamlakatlarda ta‘lim sohasida DXSh loyihalarini tashkil etish bo‘yicha ko‘plab misollarni keltirish mumkin. Jahonning ma‘lum bir mamlakatlari DXSh imkoniyatlarini etarlicha to‘liq baholagan bo‘lib, aksariyat davlatlarda DXShning rivojlanish xususiyatlarini tadqiq etish, uni realizatsiya qilish va takomillashtirish bo‘yicha xalqaro institutlar faoliyat olib bormoqdalar. Bularga quyidagilar kiradi:

– Yevropa Davlat-xususiy sherikligi ekspertiza markazi (European PPP Expertise Centre);

– AQSh Davlat-xususiy sheriklik bo‘yicha milliy kengash (The National Council for Public-Private Partnerships).

Shu bilan birga, xalqaro miqyosda ham, alohida hududlar darajasida ham tadbirkorlikni rivojlantirish bilan shug‘ullanadigan ko‘plab rivojlanish institutlari mavjud. Bunda ular DXShni rivojlantirish muammolariga katta e‘tibor berishadi. Dunyodagi eng yirik xalqaro rivojlanish institutlari quyidagilardir:

– Xalqaro tiklanish va taraqqiyot banki (XTTB, IBRD);


– Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki (YTTB, YBRD);

- Islom taraqqiyot banki (ITB, ISDB);
- Xalqaro taraqqiyot assotsiatsiyasi (XTA, IDA) va boshqalar.

Bozor iqtisodiyoti mexanizmiga asoslangan milliy iqtisodiyotlar darajasida ko'pchilik davlatlarning rivojlanishi bo'yicha turli yo'nalishlardagi institutlari ham yaratilgan va faoliyat yuritmoqdalar. Bularga:

- Hindiston industrial taraqqiyot banki (IDBI);
- Xitoy taraqqiyot banki (CDB);
- Germaniya taraqqiyot banki (KfW);
- Xorijiy xususiy investitsiyalar korporatsiyasi (OPIC) va boshqalar.

Bunday tuzilmalarning asosiy sa'y-harakatlari transport, maxsus va energetika mashinasozligi sohasidagi loyihalarni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan. Shu bilan birga, ta'lim sohasidagi loyihalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Katta ettilik davlatlarida ta'lim sohasiga ajratilgan mablag'lar rivojlanayotgan davlatlarga nisbatan ta'limga ajratilgan loyihalarni moliyalashtirishga ko'proq e'tibor qaratilgan [6].




1-rasm. Turli xil iqtisodiy rivojlanish darajasiga ega mamlakatlarda DXSh loyihalarining soha va tarmoq tarkibi [7]

Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, davlat qanchalik rivojlangan bo'lsa, DXSh loyihalari tarkibida ijtimoiy yaltirilgan sohalar shunchalik muhim hisoblanadi (1-rasm).

Ijtimoiy himoya darajasi kam rivojlangan, umr ko'rish davomiyligi past, infratuzilmasi sust rivojlangan mamlakatlarda esa asosiy e'tibor yo'l qurilishi, elektr energetikasi va boshqa sohalardagi loyihalarga qaratiladi. Bu tuzilmani printsiptial muhim jihatdan shundan iboratki, davlatning iqtisodiy rivojlanishini etarli darajada emasligi ko'pincha asosiy e'tibor strategiyasida milliy iqtisodiyotning turli sohalarini rivojlantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, so'nggi bir necha yil ichida hatto rivojlangan davlatlar ham asta-sekin infratuzilma loyihalarini realizatsiya qilishga o'tmoqda. Ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirish bo'yicha hamon etakchi bo'lishiga qaramay, asta-sekin boshqa sohalardagi loyihalarga o'z o'rnini bo'shatib bormoqda. Masalan, agar

Yevropada 2021 yilda tuzilgan DXSh shartnomalarining asosiy qismi ta’limga to’g’ri kelgan bo’lsa, 2022 yilda u transport tizimini rivojlantirishdagi hisyasi yuqori bo’lgan (2-rasm).



2-rasm. 2021-2022 yillarda Yevropada sohalar bo‘yicha DXSh loyihalarining tarkibi [8]

Umuman olganda, DXSh loyihalari sonining kamayotganini aytish mumkin. Bundan tashqari, Yevropa DXSh ekspertlar markazi moliyalashtirish bo‘yicha loyihalarning qisqarishini qayd etadi. Bu holat qisman 2008 yildagi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyin ko‘plab Evropa davlatlarining beqaror iqtisodiy ahvoli bilan bog‘liq.

Davlat-xususiy sheriklik to‘g‘risidagi bitim doirasida xususiy sheriklarga quyidagi moliyaviy qo‘llab-quvvatlash turlari taqdim etilishi mumkin:

- Subsidiyalar, shu jumladan, xususiy sherikning davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirishdan oladigan, kafolatlangan eng kam daromadini ta’minlashga yo‘naltiriladigan subsidiyalar;
- Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan aktivlar va mol-mulk tarzidagi qo‘yilmalar;
- Davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish jarayonida ishlab chiqarilgan yoki yetkazib berilgan tovarlarning(ishlarning, xizmatlarning) muayyan miqdorini yoki bir qismini iste’mol qilganlik yoki ulardan foydalanganlik uchun to‘lovga yo‘naltiriladigan O‘zbekiston Respublikasi byudjetlari tizimining byudjet mablag‘lari;
- Budjet ssudalarini, qarzlarini, grantlarini, kredit liniyalarini va moliyalashtirishning boshqa turlarini berish;
- O‘zbekiston Respublikasining davlat kafolatlari;
- Soliq imtiyozlari va boshqa imtiyozlar;
- Boshqa kafolatlar va kompensatsiyalar.

Xulosa va takliflar. Ta’lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmlarining rivojlanishi dunyo miqyosida samarali natijalar bermoqda. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xususiy sektorni jalb qilish ta’lim sifati va infratuzilmasini yaxshilashga, innovatsion yondashuvlarni joriy etishga va investitsiya hajmini oshirishga xizmat qiladi. DXSh

modeli orqali ta’lim tizimining moliyaviy yuklamasi kamayib, davlat va xususiy sektor o’rtasida samarali hamkorlik shakllanadi. Shu bilan birga, bu jarayonda huquqiy bazani takomillashtirish va manfaatdor tomonlarning ishonchini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Bundan tashqari iqtisodiyotni modernizatsiyalashuvi sharoitida ta’lim xizmatlari ko’rsatishda davlat-xususiy sherikchiligini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, ta’lim xizmatlari sifatini oshirishda maktab, professional va oliy ta’lim tizimida davlat va xususiy sektor o’rtasida barqaror munosabatlarni shakllantirish va samaradorligini oshirish borasida tizimli ishlar olib borish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Ta’lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklikning amaldagi mexanizmi vositalarini o’rganish, tahlil qilish natijalari, ishlab chiqilgan xulosalar va tavsiyalar davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturlarini shakllantirishda, qabul qilinayotgan qarorlarni baholash ko’rsatkichlari va mezonlarini aniqlashda, shuningdek faoliyat natijadorligi ko’rsatkichlarini oshirishda samarali hisoblanadi. Tadqiqot davomida olib borilgan ishlar natijasi sifatida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

1. Huquqiy va institutsional asoslarni takomillashtirish – DXSh loyihalarini qo’llab-quvvatlovchi qonunchilik bazasini kuchaytirish va aniq reglamentlar ishlab chiqish zarur.

2. Soliq va moliyaviy imtiyozlar taqdim etish – xususiy sektorni ta’lim sohasiga faol jalb qilish uchun soliq imtiyozlari va davlat subsidiyalarini kengaytirish lozim.

3. DXSh mexanizmlarining samaradorligini oshirish – rivojlangan mamlakatlar tajribasidan kelib chiqib, davlat va xususiy hamkorlik shartlarini aniq belgilash hamda manfaatlarning muvozanatini saqlash kerak.

4. Innovatsion va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish – xususiy sektor bilan hamkorlikda zamonaviy ta’lim texnologiyalarini joriy etish, masofaviy ta’lim platformalarini yaratish va rivojlantirish muhimdir.

5. Xususiy sektor ishtirokini rag’batlantirish – ta’lim infratuzilmasini modernizatsiya qilish va o’quv dasturlarini yangilashda biznes vakillari va nodavlat tashkilotlarning ishtirokini kengaytirish tavsiya etiladi.

6. Monitoring va baholash tizimini joriy etish – DXSh asosida tashkil etilgan ta’lim loyihalarining natijadorligini baholash va samaradorlikni oshirish maqsadida doimiy monitoring tizimini yaratish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Черданцев В.П. Государственно-частное партнерство как элемент прорывных технологий для повышения качества образования / В.П. Черданцев, А.П. Андруник, С.А. Котова // Современные проблемы науки и образования. – 2015. - №4. – С. 5.

2. Бакшеева А.Д. Взаимодействие государства, бизнеса и образовательных организаций в рамках государственно-частного партнерства / А.Д. Бакшеева // Государственно-частное партнерство, 3(1), 63-78; doi: 10.18334/ppp.3.1.35139.

3. Кекконен А.Л. Развитие моделей сотрудничества высшего образования и бизнеса: европейский и российский опыт / А.Л.Кекконен, С.В.Сигова // Инновации. – 2016. - №3 (209). – С. 82.

4. Фролов С.Ю. Региональные вузы: проблемы развития в условиях модернизации высшего образования / С.Ю. Фролов // Вестник Челябинского государственного университета. – 2015. - №9(364). Философия. Социология. Культурология. Вып. 36. – С. 104.

5. Молчанова О.П. Государственно-частное партнерство в образовании: [сборник] / Научные редакторы О. П. Молчанова, А. Я. Лившин. – М.: КДУ, 2009. – С. 5.

6. S.N.Xashimova, A.A.Abdikarimova Davlat-xususiy sheriklik mohiyati, ahamiyati va afzalliklari // Science and Education. 2023. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/davlat-xususiy-sheriklik-mohiyati-ahamiyati-va-afzalliklari>

7. Андрианов В.Д. Институты развития и их роль в реализации проектов государственно-частного партнерства. URL: http://www.pppinrussia.ru/userfiles/upload/files/events/kafedra_2011/12.pdf.

8. Лохтина Л.К., Батуев Э.Д. Понятие и сущность государственно-частного партнерства. URL: <http://vestnik.mednet.ru>.

9. Market Update: Review of European PPP Market in 2021, 2020. EPEC. URL: <http://www.eib.org/epec/index.htm>.